



“KREATIVLIK” VA “IJODIY TOPSHIRIQ” TUSHUNCHALARINING IJTIMOIY-FALSAFIY VA PEDAGOGIK TALQINI

Usmonaliyeva Niluzar Yorqinjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Kreativlik” va “ijodiy topshiriq” tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy va pedagogik talqini hususida fikr mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, kreativlik hamda ijodiy topshiriq tushunchalarining turli turli manbalarda bayon etilishi mualliflik nuqtai nazardan tahlil qilinganda hamda ushbu tushunchalarga shaxsiy nuqatai nazardan mualliflik ta’riflari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Kreativlik, ijodiy topshiriqlar, rivojlanish, kreativ ko‘nikmalar, zamonaviy ta’lim, ta’lim jarayoni, pedagog.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЙ «ТВОРЧЕСТВО» И «ТВОРЧЕСКОЕ ЗАДАНИЕ»

Абстрактный. В статье излагаются размышления о социально-философской и педагогической трактовке понятий «творчество» и «творческая задача». В статье также анализируется изложение понятий «творчество» и «творческая задача» в различных источниках с точки зрения автора, а также приводятся авторские определения этих понятий с личной точки зрения.

Ключевые слова. Творчество, творческие задания, развитие, творческие способности, современное образование, образовательный процесс, учитель.

SOCIAL-PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF “CREATIVENESS” AND “CREATIVE TASK”

Abstract. This article presents observations on the socio-philosophical and pedagogical interpretation of the concepts of "creativity" and "creative task". The article also analyzes the presentation of the concepts of creativity and creative task in various sources from the author's point of view and presents the author's definitions of these concepts from a personal point of view.

Keywords: Creativity, creative tasks, development, creative skills, modern education, educational process, teacher.

Kirish. Bugungi rivojlanib borayotgan ta’lim tizimi ta’lim beruvchilarning oldiga bir qator vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida ta’limning samarali kechishi, ta’lim oluvchilarning mashg‘ulotga qiziqishini ta’minlash, ta’lim samaradorligini oshirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu jarayonni samarali tashkil etish, ta’lim oluvchilarning individual qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ta’lim oluvchilarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilishda pedagogning kreativ qobiliyati muhim muhim o‘rin tutadi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonning sur‘ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Bugungi zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchining kreativ fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishini taqozo etadi.

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatlarini ijodiy topshiriqlar asosida rivojlantirish jarayonini samarali tadqiq qilish, tadqiqot mohiyatini to‘laonli yoritish uchun ilmiy izlanishda “asos” vazifasini bajaruvchi tushunchalarni aniqlash va ajratib olish hamda ular orqali qanday mazmun yoritilishidan xabardor bo‘lish ilmiy-pedagogik faoliyatni to‘g‘ri, samarali tashkil etilishini ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan tadqiqot ishining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda quyida asosiy tushunchalarni pedagogik nuqtayi nazardan talqin qilish kutilgan natijaga erishish imkoniyatini yaratadi, degan fikrga kelindi: kreativlik, kreativ fikrlash ko‘nikmasi, ijodiy topshiriq, takomillashtirish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ilmiy-pedagogik manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativlik tushunchasiga yagon, yaxlit ta’rif mavjud emas. Kreativlik tushunchasi turli manbalarda turlicha sharxlanadi.

Jumladan, kreativlik tushunchasi pedagogika ensiklopediyasida (ijodiylik) (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – 1) qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. 2) shaxsning yangi g‘oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati [1.B.315] deb tavsiflanadi. Shunindek, pedagogika ensiklopediyasida “shaxs xatti-harakati, faoliyatida kreativlik mavjudligini amaldagi an’anaviy holatlar, tajribalardan farqli o‘laroq muammoni yangicha yondashuv asosida, nostandart tarzda yechish yuzasidan mustaqil qaror chiqara bilish iqtidori mavjudligi bilan belgilanadi. Aslida kreativlikka moyillik tug‘ma tarzda barchada mavjud bo‘lishi mumkin. Kreativlikni namoyon bo‘lishi (yoki namoyon bo‘lmasligi)ning bir qator omillari mavjud. Atrof-muhit hamda ta’lim mazmuni va metodikasi kreativlikni namoyon bo‘lishi va rivojlanishining bosh omili hisoblanadi”. [1.B.315] Shunindek, kreativlik “(ijodiylik) (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va echimga olib keluvchi aqliy jarayon; shaxsning yangi g‘oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati” [1.B.315] hisoblanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida kreativlik “yaratuvchanlik, ijodkorlik” [2.B.177] tarzida bayon qilingan. Psixologik lug‘atlarda kreativlik “tadqiqot xarakteriga ega bo‘lib, o‘quvchitalabalarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi” [3.B.47] tarzida bayon qilinadi. Psixologik nuqtayi nazardan kreativlik “insonning ijodiy imkoniyatlarini namoyon bo‘lishi (fikrlash, his-tuyg‘ular, muloqot, shaxsiy faoliyat) sifatida qaraladi va umumiy holda uning alohida jihatlarini, faoliyat mahsulotlarini, ularni yaratish jarayonini tavsiflaydi”[4.B.92]. Falsafiy ensiklopediya lug‘atida kreativlik (lotincha *creo*-ijod etmoq, yaratmoq) berilgan jarayon va muammolarni noodatiy ko‘rinishda yechimini topishga yo‘naltirilgan ijodiy o‘zgarishlarga bo‘lgan qobiliyat [5.B.1072] sifatida tavsiflanadi.

Muhokama va natijalar. Shuni qayd etish lozimki, kreativlik tushunchasini sharxlashga urinish mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan alohida qiziqish obyekti hisoblanadi. Jumladan, xorijiy olimlardan Ken Robinson kreativlikni “o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui”[6.B.566] sifatida talqin etasa, Gardner kreativlikni “shaxs tomonidan amalga oshirilaigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma‘lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”[7.B.300] deb ta’riflaydi. Kreativlik deydi Embayl “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishdir”[8.B.29]. T.Lyubardning fikricha, kreativlik “yangilikka ega va shu bilan birga o‘zi joylashgan kontekstga mos keladigan mahsulot yaratish qobiliyati sifatida ko‘rilishidir” [9.B.20]. P.Torrens fikricha, kreativlik “muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish” [9.B.21] hisoblanadi. D.Veksler “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi”[9.B.21] – deb ta’kidlaydi. A.X.Maslou kreativlikda o‘z-o‘zini shakllantirishning ikki darajasini keltirib o‘tgan: birinchisi – “ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo‘ladi”, “ikkinchisi – ixtiyoriy, og‘ir mehnat bilan bog‘liq, uzluksiz ta’lim, kamolotga intiluvchanlik”. T.A.Barisheva va Yu.A.Jigalovalar pedagogikada kreativlikni tizimli (ko‘p bosqichli, ko‘p o‘lchamli) psixik (ruhiy) ta’lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual potensialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasining mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va hokazolarni ham kiritadi.[11.B.16] A.A.Ivina kreativlikni “Insonni hayotga moslashishi emas, balki uni o‘zgartirishidir” [11.B.16] deb ta’riflaydi. A.B.Brushlinskiy esa kreativlikni “insonning ijodiy imkoniyatlarini namoyon bo‘lishi (fikrlash, his-tuyg‘ular, muloqot, shaxsiy faoliyat) sifatida qaraladi va umumiy holda uning alohida jihatlarini, faoliyat mahsulotlarini, ularni yaratish jarayonini tavsiflaydi” deb sharxlaydi. N.M.Gnatko kreativlikni “ob’ektning funktsiyalarini qayta fikrlab tushunishga, uni yangi sifatda qo‘llashga bo‘lgan qobiliyat” deb tavsiflaydi. E.Fromm kreativlikni “Bu hayron qolish va bilish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda yechimlar topa olish malakasi, va qobiliyatidir” deb ta’kidlaydi. X.E.Trikning fikricha “Kreativlik inson tomonidan avval mavjud bo‘lmagan nimanidir yaratish” dir.[12.B.12]

Kreativlik tushunchasi Respublikamizning bir qator olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan. Jumladan, G.Ibragimovning fikricha “kreativlik – yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi”. Sh.Pozilova esa tadqiqot ishida “kreativlik nostandart fikrlashi natijasida yangi, original g‘oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyati” degan xulosani beradi. N.Saydullayeva kreativlikka “Ma‘lum bir kontekstda qimmatli yoki mazmunli bo‘lgan yangi g‘oyalar, yechimlar yoki iboralarni yaratish qobiliyatini o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali tushuncha. Bu an‘anaviy fikrlash shakllaridan voz kechish va yangi istiqbollari, aloqalar yoki kombinatsiyalarni o‘rganish jarayonini o‘z ichiga oladi. Kreativlik ko‘pincha o‘ziga xoslik, tasavvur, sezgi va turli xil fikrlashni o‘z ichiga oladi – me‘yordan yoki standart echimlardan ajralib turadigan fikrlash” [12.B.13] deb ta‘rif beradi. Y.M.Asadovning fikricha, kreativlik salohiyatini eng qimmatli hususiyatlaridan biri uning innovatsiyani yaratishdagi asosiy rolidir. Innovatsiya - shaxs intellekti mahsuli bo‘lib, kreativlikni qo‘llash natijasida namoyon bo‘ladi. A.A.Aripjanova esa kreativlikni o‘rganish bo‘yicha pedagogik faoliyatning o‘ziga xosliklari va yondashuvlarni inobatga olib, pedagog kadrlarining kreativligini: faoliyatli, samarali, shaxsiy, muhitga doir, muammoli aspektlarda ko‘rib chiqish lozimligini aniqlagan. N.Muslimovning fikricha “Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi”. Z.T.Nishanova o‘z tadqiqot ishida kreativlikni “ijodiy fikrlashni tasavvur, tushuncha, bilim, ko‘nikma, fikr, e‘tikod va motivatsiyaga asoslangan holda amalga oshirish lozimligini ta‘kidlaydi”. O.I.Tolipova talabaning kreativligi hususida so‘z yuritib uni quyidagicha sharxlaydi “Uning noodatiy fikrlari, kutilmagan vaziyatga nisbatan ijobiy javob qaytara bilishi, har qanday savolga tayyor turishi va boshqalarga nisbatan eng mukammal natijani ko‘rsatishi hamda ta‘lim jarayoni ishtirokchisi sifatida yangi g‘oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyat”[13.B.22]

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda kreativlik tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi: “Kreativlik – shaxsning yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga qaratilgan qobiliyati bo‘lib, yangiliklarga ochiqligi, biror ishni bajarishda ijodkorlikni namoyon etishi, uning jismoniy va ruhiy kamolotini belgilovchi tushuncha”.

Tadqiqot mavzusini asoslash davomida “kreativlik” va “kreativ fikrlash ko‘nikmasi” tushunchalarining mohiyatini tahlil qilish bilan birga tadqiqotimizning yana bir muhim jihati hisoblangan “ijodiy topshiriq” tushunchasining mazmunini yoritish ham muhimdir.

Ijodiy topshiriqlarni turlicha yondashuvlar asosida taqdim qilish mumkin. B.G.Razumovskiy ijodiy vazifani yechish algoritmi o‘quvchilarga noma‘lum bo‘lgan vazifa deb tushunadi. Bunday muammolarning shartlari niqoblangan bo‘lishi mumkin: yetishmayotgan ma‘lumotlar bilan, ortiqcha ma‘lumotlar bilan yoki o‘qituvchi muammoni hal qilishni kutayotgan bilim sohasidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olmaydi. “Ijodiy vazifa” ta‘rifining an‘anaviyligi uning sub‘ektivligidadir. Muammoning sharti uni hal qilish uchun zarur bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin, ammo uni hal qilish algoritmi hali o‘quvchilarga ma‘lum bo‘lmasa, muammo baribir “ijodiy” bo‘lib qoladi. Y.V.Naumenkoning fikricha ijodiy topshiriqlarni nafaqat mavzuni o‘zlashtirishning yakuniy

bosqichida o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan yuqori darajadagi murakkablikdagi o‘quv vazifalari, balki o‘quv ma’lumotlarini idrok etish va qayta ishlash bilan bog‘liq muammoli vaziyatlar sifatida tushunishni taklif qiladi.

A. A. Gin ijodiy topshiriqni aniqlashning murakkabligini hisobga olib, “ochiq topshiriq” atamasini taklif qiladi. Ochiq topshiriq - bu talabaning o‘zini izohlashi, tushunishi va to‘ldirishi kerak bo‘lgan noaniq shartga, ko‘plab yechimlarga ega bo‘lishi mumkin. R.I. Malafeeva va A.I. Bugayevning fikricha ijodiy topshiriqlar vazifasini - fizik qonunlar asosida bajarilishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir talab asosida ishlab chiqilgan, muayyan qonunlari ushbu muammoni hal qilish uchun ishlatilishi kerak bo‘lgan jismoniy hodisalarning bevosita yoki bilvosita ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lgan muammoli vaziyatni anglatadi. I.Ya.Lernerning ijodiy faoliyati tajribasini yetkazishning yagona mumkin bo‘lgan usuli. Lerner pedagogik konstruksiyalarni o‘qituvchi tomonidan tuzilgan ijodiy topshiriqlar ko‘rinishida, mustaqil hal etish jarayonida o‘quvchilar ularni yechish yo‘llarini topishda tajriba to‘plashlarini ko‘rib chiqadi. Shu bilan birga, bilimlarning bir qismi tayyor haqiqatlarni takrorlash jarayonida emas, balki izlanish mahsuli sifatida to‘planadi. Ijodiy vazifalarning o‘ziga xos xususiyati I.Ya. Lerner shunday deydi: “Ijodiy muammoning har qanday stereotipik muammodan farqi shundaki, stereotipik muammoni hal qilish yo‘li ma’lum, ijodiyda esa uni ijodiy izlanish jarayonida topish kerak”.

Z.T.Nishanova o‘zining “Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari” nomli doktorlik dissertatsiyasida “ijodiy topshiriqlar bu shaxsni muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi topshiriq” deb ta’kidlaydi.

U.A.Usmanova o‘zining “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy tasavvurini rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiyasida ijodiy topshiriqlarning bir qancha turlarini keltirib o‘tgan va ijodiylik, ijodkorlik va kreativ fikrlashning farqlarini taxliliy jixatdan o‘rgangan. B.Adizov ham ijodiy topshiriqlar ustida tadqiqot olib borib ijodiy topshiriqlarni 3 turini ajratib ko‘rsatadi:

1. Muammoni yechishga qaratilgan;
2. Muammoni tahlil qilishga qaratilgan;
3. Faollikni oshirishga qaratilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ijodiy topshiriq tushunchasini quyidagicha sharxlash mumkin: “Ijodiy topshiriq – ta’lim jarayonini samarali amalga oshirishga yordam beruvchi, ta’lim oluvchilarda kreativ ko‘nikmalarni hosil qilishga ko‘maklashuvchi, ta’lim oluvchilarning individual hususiyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi, yangi g‘oyalarni paydo qiluvchi topshiriq”.

Xulosa. Muhtasar qilib aytganda, pedagogika sohasidagi tadqiqotlar gnostik nuqtayi nazaridan talabalarda kreativ fikrlash hamda ijodiy topshiriqlarni rivojlantirish masalalari u yoki bu mustaqil tadqiqotlarning obyektlari sifatida tanlangan. Ilmiy-pedagogik jarayonlarning mohiyati “kreativlik”, “kreativ fikrlash”, shuningdek, “ijodiy topshiriqlar” tushunchalari negizida ochib berilgan. Biroq, kreativ fikrlash ijodiy topshiriq tushunchalari integral tarzda o‘rganilmagan. Tadqiqot muammosini integral o‘rganish bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kreativ fikrlash ko‘nikmalarini ijodiy topshiriqlar asosida rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga

samarali tayyorlash tegishli yo‘nalishda o‘qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirishga yordam beradi. Qolaversa, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida kreativ fikrlash ko‘nikmalarini ijodiy topshiriqlar asosida rivojlantirishning mazmuni va ustuvor tamoyillarini aniqlashtirish uchun “poydevor” vazifasini o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Педагогика энциклопедияси. Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат нашриёти. Тошкент.:2015. 315-б.
2. Ўзбек тилининг изохли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат нашриёти. Тошкент.:2015. 177-б.
3. Psixologik atamalar izohli lug‘ati. Andijon. 2017. 47-b.
4. Большой психологический словарь. – М.: Прайл-ЕВРОЗНАК. Под ред. Б.Г.Мещерякова, акад. В.П.Зинченко. 2003. – 92 с.
5. Философия: Энциклопедический словарь. Под ред. А.А.Ивина. – М.: Гардарика, 2004. – 1072 с. (ISBN 5-8297-0050-6).
6. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс. – Казань: Изд-во КГУ, 1996. – 566 с
7. Вишнякова, Н.Ф. Креативная акмеология. Психология высшего образования / Н.Ф. Вишнякова. - Мн.: Народная асвета, 2007. - 300 с.
8. Алейников А.Г. О креативной педагогике / А.Г. Алейников // Вестник высшей школы. - 2009. - №12. - С. 29-34.
9. Любарт Т., Мишуру К. и др. Психология креативности / пер. с фр. – М.: Когнито-Центр, 2009. – С. 20
10. N.A.Muslimov va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 59 b
11. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности - СПб.: СПГУТД, 2006. -С. 16.
12. N.I.Saydullayeva. Bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (integrativ yondashuv asosida). Ped.fan.bo‘yicha.falsa.dok.diss.avtoreferati. Toshkent. 2024. 12-b.
13. Tolipova O.I. Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining kreativligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. Ped.fan.bo‘y.falsa.dok.diss. T. 2023. 22-b.